

---

## OCHIQ MULOQOT O'TKAZILDI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 apreldagi PQ-117-sonli qarori bilan tasdiqlangan tashabbusli byudjetlashtirish jarayonini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasiga muvofiq joriy yilning 15 mayidan 15-iyunga qadar hududlarda fuqarolar va jamoat tashkilotlaridan tashabbusli byudjet jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar yig'ish ko'rsatib o'tilgan edi.



Shu bois Qo'shtepa tumani hokimligining majlislar zalida fuqarolardan tashabbusli byudjet jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni yig'ish va ularni muhokama qilish yuzasidan ochiq muloqot o'tkazildi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2023-05-30 16:08:24